

# "Respublika tarmoqlararo kooperatsiya sanoat yarmarkasi" boshlandi. Unda "O'zkimyosanoat" AJ ham faol ishtirok etmoqda

// 14.11.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/respublika-tarmoqlararo-kooperatsiya-sanoat-yarmarkasi>



Bugun poytaxtimizdagi "O'zekspomarkaz" markaziy ko'rgazmalar majmuasida "Respublika tarmoqlararo kooperatsiya sanoat yarmarkasi" boshlandi. Unda "O'zkimyosanoat" AJ ham faol ishtirok etmoqda. Sanoat yarmarkasida "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining 300 ga yaqin mahsulotlari namoyish qilinmoqda.

Shu bilan birga tizim korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, mahsulot ishlab chiqarish uchun import qilinadigan tovarlar (xomashyo materiallar, butlovchi buyum va ehtiyot qismlar, elektroapparatlar va h.k.) ro'yxati va namunalari shakllantirilib, sanoat yarmarkasida ishtirok etuvchi barcha tarmoq korxonalarini yaqindan tanishtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, "Respublika tarmoqlararo kooperatsiya sanoat yarmarkasi" davomida import qilinadigan mahsulotlar, ularga bo'lgan yillik ehtiyoj, texnik talab va ko'rsatkichlari aks ettirilgan taqdimotlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati